

ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANIDAGI ALISHER NAVOIY OBRAZINING SHAKLLANISHIDA TA'LIM OMILI

Kenjayev Ziyadulla Ortiqovich

*Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi o'qituvchisi, Qarshi
davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanidagi ta'lim-tarbiya bilan bog'liq boblar tahlil qilinadi. Xususan, Alisherni Navoiy darajasiga ko'tarilishida ta'lim-tarbiyaning, aniqrog'i, ta'limning o'rni borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Navoiy, Kulohiy, Rizo Afzal, Abullays Samarqandiy, ta'lim-tarbiya, fiqh, abytot, ilmi nujum, handasa.

Аннотация: В данной статье анализируются главы, связанные с образованием, в романе Исаджона Султана «Алишер Навои». В частности, обсуждается роль образования в развитии Алишера Навои.

Ключевые слова: Навои, Кулохи, Реза Афзал, Абуллайс Самарканди, образование, юриспруденция, поэзия, наука астрология, каллиграфия.

Annotation: This article analyzes chapters related to education in Isajon Sultan's novel "Alisher Navoi". In particular, the role of education in the development of Alisher Navoi is discussed.

Key words: Navoi, Kulohi, Reza Afzal, Abullais Samarkandi, education, jurisprudence, poetry, science of astrology, calligraphy.

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qutmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz ganj ila

Alisher Navoiy obrazi – shaxsi haqida o'ylaganda har doim hammaning ko'z oldida, Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultoni gavdalanishi aniq. Shunday bo'lsa-da, mana shunday buyuk zotning shu darajada yuksaklikka erishishi to'g'risida, ya'ni kimlardan qay tarzda ta'lim olganligi haqida biror badiiy asarda yetarlicha to'xtalmagan. Alisherni Navoiy darajasiga ko'tarilishida ta'lim-tarbiyaning, aniqrog'i, ta'limning o'rni borasida badiiy lavhalar yaratilmagan. Yozuvchi Isajon Sulton esa o'z romanida mana shu jihatga alohida e'tibor qaratgani bilan Navoiy obrazining kamolotiga o'z davrining pir-u komillarining xizmati katta ekanligini asosli tarzda jonlantiradi. Bu esa o'quvchiga kelajakdagi orzu-maqсадlariga erishish yo'lida ta'lim-tarbiyaning, ayniqsa, ilm-fanning naqadar ahamiyatli ekanini zimdan singdirishga xizmat qiladi.

Isajon Sulton romanda Abu Abdulloh Kulohiy, Abu Abdulloh Junaydiy, Fazlulloh Abulays, mavlono Rizo Afzal, mavlono Xoja Misliy kabi o'z zamonasining olim-u fuzalolarining Alisher Navoiy shaxsining kamolotida asosiy o'rinni egallaganiga alohida e'tibor qaratadi.

Jumladan, asarning birinchi qismi – “G‘aroyib us-sig‘ar”dagi “Hiriyda bir tong”, “Bir boshqa olam”, “Gul sayli”, “Hikmat fazilati haqida” boblarida Navoiyning ilk ustozlari – Abu Abdulloh Kulohiy darslari, darsdan tashqari suhbatlari tasvirlangan. Muallif Abu Abdulloh Kulohiy obrazi orqali ulkan badiiy-g‘oyaviy maqsadni o‘z oldiga qo‘yadi.

Dastlab so‘zga, so‘zning qudratiga ta‘rif berar ekan, olam-u odamning yaratilishi ilohiy kalomdan boshlanishini, dunyodagi barcha hayratomuz yaratilishlar so‘z tufayli bunyod bo‘lgani, oxir-oqibat so‘z insonni yo jannatga, yo do‘zaxga yo‘llashini Quro‘ni Karim” oyatlari mazmuni orqali tushuntirib beradi.

“...insonga esa beaded so‘zlarni hadya qildi. “Va u zot odamga barcha narsalarning ismini o‘rgatdi...” [Qur‘oni karim, “Baqara” surasi, 31-oyat]. ... Bu birgina “Bo‘l” (Qur‘oni Karim “Yosin” surasi 82-oyati mazmuni) so‘zi bilan ro‘y berdi. ...Aqlingizdan foydalaning, deya sizga oyatlarini izohladi. Bilgan bilan bilmagan teng bo‘lurmi (Qur‘oni Karim “Zumar” surasi 9-oyati mazmuni), dedi”⁷⁴

Yozuvchi Kulohiy obrazi va dars jarayoni voqeasi bilan ham asardagi obrazlarga, ham o‘quvchiga ta‘lim berishni maqsad qilib olgan. Dars jarayonida ustoz Kulohiy so‘zning ilohiy qudrati, vazifasi, ma‘no qirralariga alohida to‘xtaladi. So‘z sifatlaridan so‘ng dunyo tillari, fasohat va balog‘at sayqali bilan ziynatlangan, Tangri taoloning kalomi nozil etilgan arab tilining mukammalligi haqida gapira turib, birgina tuyaning yuzlab nomlar bilan atalishini misol qilib keltiradi. “...urush tuyasini “jut” derlar. Qora rangdagisi “jalma”, oqi “samha”, kulrangi “malha”...olti yasharini “saniy”, yetti yasharini “rab‘a” deydilar”.

Keltirilgan shu misol orqali xalq orasida keng ishlatiladigan iboraning ma‘nosiga ham izoh berib ketadi. “...yuk tuyasi “rixla” bo‘lib, “Falonchi rixlat ayladi” degan gapning ma‘nosi shundan kelib chiqadi, ya‘ni ajalning yuk tuyasiga minib, mahshar manziliga ravona bo‘ldi. U tuyaga ortilgan yuk esa uning o‘zidir”⁷⁵.

So‘ng asl tillarning manbayi – turk, fors va hind tillarining kelib chiqishi haqida ma‘lumot beradi. “...Nuh alayhissalomning uch o‘g‘lidan tarqagandir. Nuh alayhissalom to‘fon balosidan najot topgach, o‘gillarigan Yofas Abut-turkni Xito mulkiga, Som Abul-fursni Eron va Turon mamlakatiga va Hom Abul-hundni Hindiston tuproqlariga yubordi. Shu uch payg‘ambarzodadan jahon xalqlari tarqaldi...”. Shu o‘rinda dunyo tillarining kelib chiqishi haqidagi ushbu ma‘lumotlar Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida batafsil keltirilganini eslatib o‘tish joiz. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turk tilining sart (fors) tilidan dan ko‘ra tez-fahmroq, tushunchasi yuqoriroq, yaratilish jihatidan sofroq va tozaroq⁷⁶ bo‘lganligi, turklar so‘z tuzishda ustun ekanligi alohida ta‘kidlangan.

Romanda turkiy tilning ham so‘zga boy ekanligini ko‘rsatish uchun birgina otning qulun, toy, toychoq, ayg‘ir, biya, to‘riq, saman, bo‘z, olacha, tarlon, g‘irko‘k, boychibor, tulpor, bedov, qashqa kabi rang-u tusi, yoshiga qarab o‘nlab nomlari borligiga misollar keltiriladi. Fariduddin Attorning bir g‘azali mazmunini sharhlab beradi. Keltirilgan har

⁷⁴ . Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021. 25-26-betlar.

⁷⁵ Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021. 28-bet.

⁷⁶ Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” www. Ziyouz.com kutubxonasi. 3-bet

bir ma'lumot, misol har bir so'zning qudrati, ona tilimizning jozibasini ko'rsatadi. Shu orqali yozuvchi o'quvchining asarni o'qiyotgan har bir so'z boyligini oshirishni ham uddalagan deb aytish xato bo'lmaydi.

Kulohiyning aynan mana shu darsi Alisher Navoiyning turkiy tilga ixlosining oshishida, turkiy tilda ijod qilishiga, turkiy tilning obro' nufuzini oshirishga ishtiyoqining oshishiga va eng asosiysi, turkiy tilning nazariy jihatdan boshqa tillardan qolishmasligini isbotlab beruvchi "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining yatrtilishiga turtki – motivatsiya beradi deyish mumkin.

Navoiyning ijodiy-ma'anaviy hayotida tub burilish yasagan Samarqand hayoti asarning "Navodir ush-shabob" qismida berilgan. "Madrasada ilk saboq", "E'tiqod sirlari", "Ta'qdir xushxabari" boblarida berilgan voqealarda Navoiy Samarqanddagi Qozizoda Rumi madrasasida Fazlulloh Abulays, mavlono Rizo Afzal, mavlono Xoja Misliy kabi mudarrislardan tahsil olib, fiqh⁷⁷, tarix, handasa⁷⁸, ilmi nujum⁷⁹ fanlariga oid juda qimmatli bilimlarni o'zlashtiradi.

Muallif mavlono Rizo Afzalning birgina darsi orqali Samarqandda ilm-fanning rivojlanishida Mirzo Ulugbekning hissasi juda katta ekanligini oddiy va sodda usulda tushuntirib ketadi. Darslardan birida Rizo Afzal handasa ilmiga to'xtaladi. Bu ilmning jamiyat hayotidagi o'rni naqadar muhim ekanligini qiziqarli misollar orqali tushuntiradi. Hilol shaklidagi murakkab yer sathini o'lchash, meros taqsimlash, ko'p qirrali naqshin gavhartosh qiymatini aniqlash, to'rt mezanali aylana maqbaraning tamaliga tushadigan og'irlikni hisoblash kabi murakkab geometrik masalalar yechimining topilishi ham bevosita Mirzo Ulug'bekning topshirig'i ekanligiga e'tibor qaratadi.

Mavlono Rizo Afzal Navoiyga fiqhdan saboq berar ekan, folbinlik va munajjimlikning harom qilingani-yu, ilmi nujumning halolligini Qur'oni Karim oyatlari bilan isbotlab beradi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, asarda Navoiy obrazining munajjimlik va ilmi nujum bobdagi qarashlarida biroz nomuvofiqlik borligini payqash mumkin. Masalan, Husayn Boyqaro va Mirzo Yodgor o'rtasidagi ziddiyatli voqealar tasvirlangan "Qo'shin" deb nomlangan bobda Husayn Boyqaro "hujum vaqti va tole'ini" aniqlab olish uchun munajjim chaqirish taklifini berganda Navoiy munajjimlarning fikriga, yulduzlarning joylashuviga qarab ish tutish xato ekanligi, hujum vaqtini kechiktirish esa g'alabaga to'sqinlik qilishi mumkinligi haqida ogohlantiradi. Bu voqea orqali Navoiy koinot jismlarining joylashuvi jamiyat hayotida yuz beradigan voqelar, insonlar taqdiri va kelajagi uchun hech narsani anglatmasligi to'g'risidagi qarashlarini namoyon qiladi.

Oybekning "Navoiy" romanida Navoiy obrazining aynan shu masala bo'yicha qarashlari yanada aniqroq berilgan. "Tarix ko'rsaturkim, - dedi Navoiy hammani bir-bir ko'zdan kechirib, - munajjimlar bilan bahamjihat bo'lgan ko'p safarlar benihoyat

⁷⁷ Fiqh (arabcha — bilish, tushunish) – musulmon huquqshunosligi, shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi islom ta'limotining bir sohasidir. Islom huquqshunoslari o'zlariga taqdim etilgan savollar bo'yicha Qur'on va sunnatni tafsir qilish (ijtihad) orqali shariatni kengaytiradi, rivojlantiradi va hukmlar (fatvo) bilan amalga oshiriladi.

⁷⁸ Handasa - geometriya

⁷⁹ Ilmi nujum – astronomiya

foje oqibatlar tug'dirmishdir. Munajjimlarning mulohazasida haqiqatdan ko'ra xurofot ziyodaroqdir⁸⁰".

"Iroqliklar ayturlarki, dumli yulduzning quyrug'i tepaga qaragan bo'lsa, xayr-u marhamatlaridan darak emish. Inshoolloh sizning ham, mening ham hayotimda bundan buyog'iga yaxshiliklar ro'y bergay!"⁸¹ Roman syujetida ramziy ma'noga ega bo'lgan dumli yulduz bilan bog'liq voqealar esa yuqoridagi qarashlarga zid keladi.

Ilmi nujumning afzalliklariga to'xtalganda yulduzlarning joylashuv o'rni va holatiga qarab yer yuzida aniq va o'zgarmas taqvim yaratish mumkinligini, Abu Rayhon Beruniy, Farg'oniy kabi qomusiy olimlarimizning falakiyotga oid asarlari butun dunyoni qiziqtirib qo'yganligiga e'tibor qaratadi.

Fazlulloh Abulays Navoiyga abyot va tasavvufdan, Xoja Misliy esa tarixdan saboq beradi. Birini Navoiyga tariqatdagi yo'nalishini belgilab olishida yo'l korsatgan bo'lsa, birini tarixiy voqealar, shaxslar, afsona va asotirlarning mazmun-mohiyatini "abyotga muhrlanishini va san'at libosiga o'ranishini" o'rgatadi.

"Ilmi nujum, jo'g'rofiya, hisob, tib, bularning barchasini mujassam aylagudek qudratga ega she'r san'ati, shuningdek, insoniyat tarixi haqidagi fanlar Alisherni dunyo ishlaridan yupatib, jilvakor fikrlar olamiga olib kirdi"⁸². Xulosa qilib aytganda, romanda Navoiyning kamolotga chiqishida, yetuk ijodkor va olim, mutasavvuf bo'lib yetishishida ta'limning o'rni yuqori ekanligiga urg'u beriladi. Xususan, Alisherni Alisher Navoiy darajasiga chiqishida Hirotda, Astrobodda yoki Mashhadda emas, aynan Samarqandda egallagan bilimlarining ahamiyati yuqori ekanligi ta'kidlanadi. Romandagi ta'lim bilan bog'liq tafsilotlar Abu Abdulloh Kulohiy, Abu Abdulloh Junaydiy, Fazlulloh Abulays, mavlono Rizo Afzal, mavlono Xoja Misliy kabi ustozlarning o'qitish tajribalari Navoiy kabi yetuk shaxslarni tarbiyashda bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isajon Sulton. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – 512 b.
2. Oybek. "Navoiy". – Toshkent-2019.
3. Karimov B. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom // Yangi O'zbekiston, 2021-yil 10-avgust.
4. Quronov S. "Alisher Navoiy" romanida tarixiy shaxs konsepsiyasi. "Ilmiy xabarnoma. Gumanitar tadqiqotlar" – № 5. 2021 y.
5. G'iyosiddin Xondamir "Makorim ul-axloq", Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent – 2018.
6. Nasrullayev E. Oybekning "Navoiy" romani talqinlari yuzasidan mulohazalar // Tafakkur ziyosi, 2018. – № 2. – B. 62–65.

⁸⁰ Oybek. "Navoiy", roman. Toshkent-2019, 83-b.

⁸¹ Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021. 150-b

⁸² Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021. 154-b

7. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” [www. Ziyouz.com](http://www.Ziyouz.com) kutubxonasi.
3-bet